

### O GENRI (UILYAM SIDNEY PORTER) HIKOYALARIDA BADIY PSIXOLOGIZM

**Kamola Jovliyeva Akmal qizi**  
O‘zbekiston Milliy Universiteti  
O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

O‘qituvchi: **Zebo Sabirova Zokirovna,**  
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘Genri nasri, jumladan yozuvchining hikoyalarida badiiy psixologizm ochib beriladi. “Nyu Yorlik daydi” hikoyasiga alohida urg‘u beriladi. Adibning yaratgan asarlarida personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berish mahorati, personaj o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ularining “ichki monolog”, “ong oqimi” tarzda yoki muallif tilidan (o‘ziniki bo‘lmagan muallif gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli yorqin ifodalanishiga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** badiiy psixologizm, badiiy adabiyot, nasr, ong oqimi, psixologik tasvir, badiiy mahorat.

**Аннотация:** В статье раскрывается художественный психологизм в прозе О’Генри, в том числе в рассказах писателя. Особый акцент сделан на повести «Нью Ёрлик Дайи». Умение прямо или косвенно описать в произведениях писателя психику персонажа, мысли и чувства героя в форме «внутреннего монолога», «потока сознания» или с авторского языка (авторской речи, не являющейся его собственным) является психологической, прямая форма образа служит для ясного выражения.

**Ключевые слова:** художественная психология, художественная литература, проза, поток сознания, психологический образ, художественное мастерство.

**Abstract:** This article reveals artistic psychologism in O. Henry’s prose, including the writer’s stories. Special emphasis is placed on the story “New Yorlik Dayi”. The ability to describe the psyche of the character directly or indirectly in the works of the writer, the thoughts and feelings of the character in the form of “inner monologue”, “stream of consciousness” or from the author’s language (the author’s speech that is not his own) is psychological. direct form of the image serves to express clearly.

**Key words:** artistic psychology, fiction, prose, stream of consciousness, psychological image, artistic skill.

O Genri yaratgan asarlaridagi qahramonlar, ko‘pincha, hayot sinovlariga chidamli obrazlardir. Shu bilan birga, ular mehribon va hatto oliyjanob, aqlli. Ammo kambag‘al oilalarda tug‘ilganlar, ular baxtsiz hayotga mahkum bo‘lib, undan qochish uchun bor kuchlari bilan harakat qilishadi va odatda muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Ularning baxtli bo‘lishga urinishlari, qoida tariqasida, behuda va faqat yangi muammolarga olib keladi, ba‘zida qayg‘uli va kulgili. O Genri 1862-yil 11-sentabrda Shimoliy Karolinada qishloq shifokori oilasida tug‘ilgan. O Genrining asl

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ismi Uilyam Sidni Porter bo‘lgan. Yozuvchi dastlab aptekachi, sotuvchi, kitob bezakchisi, noshir va boshqa kasblarda ishlagan. O Genri ijod jarayonini feletonlar yozishni mashq qilishdan boshlagan. Keyinchalik qamoqdaligida yozgan hikoyalari O Genri taxallusi bilan chop ettirgan.

Amerika adabiyotining ravnaq topishida O Genri asarlarining o‘rni katta va beqiyos. Genri, ayniqsa, hikoyalari bilan shuhrat qozongan. U amerika hikoyachiligining o‘ziga xos tipini yaratdi. O Genri hikoyalari bir nafasda o‘qigulik, shunday bo‘lsa-da, o‘zining kutilmagan yechimiga ega ekanligi bilan o‘quvchini hayratga soladi. Adib qahramonlari jamiyatning “kichik qatlamlari”dir. U mana shu qatlamni o‘zgacha bir sofdillik, mehribonlik, ochiqko‘ngillik bilan chizgani sabab xalqning ko‘nglidan chuqur joy egalladi.

O Genri asarlarida badiiy psixologizm kuchli ruhda ochib beriladi. Dastlab badiiy psixologizm tushunchasiga ilmiy-nazariy jihatdan tahlillarga to‘xtalib o‘tamiz. Badiiy psixologizm asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ularining “ichki monolog”, “ong oqimi” tarzda yoki muallif tilidan (o‘ziniki bo‘lmagan muallif gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi.<sup>1</sup>

Ichki monolog-personajning moddiylashmagan, o‘ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi; badiiy psixologizmning bevosita shakli. Ichki monolog shartli ravishda inson ongida kechayotgan o‘ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi.

Ichki monologga o‘rni bilan grammatik va mantiqiy jihatdan izchil tartibga solinmagan unsurlarni ham kiritdi. Xususan, L.N.Tolstoy va F.M.Dostoevskiy asarlarida ichki monolog personaj ongida yozuvchi aralashuvisiz kechayotgan jarayon tasviri sifatida berilib, ong va ong osti qatlamlari faoliyatini butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan tasvirlashga harakat kuzatiladi. Bu ikki adib tajribalari asosida ichki monologni butkul erkin kechayotgan psixik jarayon sifatida tasvirlash, xuddi shunday effekt hosil qilishga intilish ko‘chaydi va buning natijasi sifatida XIX-XX asrlar chegarasida ichki monologning “ong oqimi” shakli vujudga keldi. Hozirgi adabiyotda ham ichki monolog personaj ruhiyatini tasvirlashning eng muhim vositalaridan biri bo‘lib, uning asrlar davomida sayqallangan turli shakllaridan personaj ruhiyatini ochib berishda keng foydalanilmoqda<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>“Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akadernashr, 2010. 50-51 b.

<sup>2</sup>Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akadernashr, 2010. 126-127 b.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Ong oqimi – XX asr modernistik adabiyotida maydonga kelgan hayotni tasvirlash usuli; inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarni bevosita, ular haqiqatda qanday kechsa, u o‘shanday tasvirlashga intilgan adiblar va ularning asarlariga nisbatan qo‘llanuvchi shartli atama. Ong oqimi termini XIX asr oxirlarida ommalashgan bo‘lib, amerikalik faylasuf U. Jems faoliyati bilan bog‘liq. U. Jemsga ko‘ra, inson ongi daryo oqimiga monanddir, bu oqimda his-tuyg‘ular, o‘y-fikrlar, to‘yqus paydo bo‘luvchi assotsiatsiyalar bir-biri bilan betartib almashinib turadi, mantiqan izohlab bo‘lmaydigan darajada bir-biriga chatishib ketadi.

Ong oqimi adabiyoti inson ruhiyati tasviri tahlilida, hech shubhasiz, olg‘a qadam edi, biroq, ikkinchi tomondan, unda ruhiyat tasviri bobida naturalizmga og‘ish ko‘zatildi. Ya’ni naturalizm voqelikni bor holicha tasvirlashga intilgani kabi ong oqimi adabiyoti inson ruhiyatidagi jarayonlarni aslicha aks ettirishni maqsad qildi. Mazkur kamchilik va cheklanganlikdan qat’iy nazar ong oqimi adabiyoti insonni anglash imkoniyatlarini kengaytirdi, inson va uning ruhiyati haqidagi tsavvurlarni boyitdi. Ong oqimi adabiyoti, xususan, uning yorqin namoyondasi J. Joysning “Uliss” asari badiiy tafakkur rivojida chuqur iz qoldirdi. Jumladan, ong oqimi adabiyoti E. Xeminguey, U. Folkner kabi bir qator yirik adiblarning ijodiy o‘shishga turtki berdi, uning an’analari syurrealizm, yangi roman namouondalari izlanishlarida ijodiy davom ettiriladi. Ong oqimimning paydo bo‘lishiga zamin hozirlagan realistic adabiyot ham uning ma’qul tomonlarini o‘zlashtirdi.<sup>3</sup>

Asardagi personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so‘zlari, yuz-ko‘z ifodalari (mimikasi), undagi fizologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi esa bilvosita psixologik tasvirdir. Ruhiy tasvirning bu ikki ko‘rinishi bir-birini to‘ldiradi, shu bois ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi bularning ikkisidan ham o‘rni bilan foydalanadi. Shuningdek, personaj ruhiyatini ochishda yozuvchi tabiat tasviridan yoki boshqa biror narsa obrazidan foydalanishi mumkin bo‘ladiki, bu ham bilvosita psixologizmning ko‘rinishidir. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida A. Qodiriy Kumushning turmushga berilish xabarini eshitgan Otabek ruhiyatini “Xo‘ja Ma‘oz” qabristoni manzarasi orqali aks ettirsa, uning Kumush hijronida yashagan paytlardagi ruhiy holatini “Navo” kuyining sharhida umumlashtirib ifodalaydi.

Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda badiiy psixologizmning uch asosiy prinsiplari bor. Bular dinamik prinsip, analitik prinsip, tipologik prinsiplardir.

1-jadval:

<sup>3</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010. – 208-209 b.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## Badiiy psixologizmning uch asosiy prinsiplari

dinamik prinsip	analitik prinsip	tipologik prinsiplardir.
-----------------	------------------	--------------------------

O Genrining “Nyu Yorlik daydi” hikoyasidagi badiiy psixologizmni tasvirlaydigan bo‘lsak, asar qahramoni Sopi ismli kishi bo‘ladi. Sopi hayotdan umidini uzgan, jamiyatga hech qanday foyda keltirmaydigan, kunlari maqsadsiz, rutubatli bir kishi edi. Biz buni uning uch oylik qishni qamoqxonada tekin ovqat, yaxshi do‘stlari bilan o‘tkazish rejasini tuzganidan bilishimiz mumkin. Sopining qamoqqa tushish uchun tuzgan barcha rejaları amalga oshmagandan so‘ng taqdirga tan beradi. Shunda u yo‘l yo‘arayotib go‘zal bir cherkovga duch keladi. Cherkovning yarim ochiq derazalaridan chiqayotgan nur, undan eshitilayotgan musiqa Sopining diqqatini tortadi. Bu birgina cherkov Sopiga baxtli kunlarini eslatadi. U onasini, do‘stlarini va hayotidagi go‘zal kunlarni xotirlaydi. Keyin hozirgi hayoti haqida o‘ylab qoladi. Uni o‘gartirishga, yangi inson bo‘lishga qaror qiladi. Ammo shu onda uning barcha o‘y-xayollari puchga chiqadi: militsiya uni olib ketadi.

Ba‘zan inson hayotida burilish nuqtalari bo‘ladiki, bunda kishi o‘zini qaysidir ma‘noda anglaydi, topishga harakat qiladi. Qahramonimiz Sopi ham chin dildan yangi inson bo‘lishga, qamoqdan chiqib ham o‘zi uchun ham go‘zal hayot qurishga intiladi. Qamoqni uning uchun bir sinov desak bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O Genri hikoyalari qahramonlarining badiiy psixologizmi turlicha, u hikoyalarida qahramonlarning taqdiriga hayotiy vaziyatlariga zamonning ta‘siri muhokamaga tortiladi. Eng asosiysi shundaki, qahramonlar xarakteri umuman bir-birini takrorlamaydi. Zero, adibning o‘z-o‘zini takrorlashga haqqi yo‘qdir. Shundagina yaxshi asar yaratiladi, o‘quvchi va vaqt sinovidan bemaolol o‘ta oladi. O Genri asarlarini shunday asarlar sirasiga kiritishimiz mumkin, uning yozganlari katta qiziqish bilan o‘qilishining sababi ham shunda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O Genrining “Nyu Yorlik daydi” hikoyasi.
2. Adabiyotshunoslik lug‘ati. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.sheraliyeva. Toshkent “Akademnashr”2010.
3. Adabiyot nazariyasi asoslari. Dilmurod Quronov.Toshkent “Navoiy universiteti”. 2018.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi.